

**BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR
HISOBINI TASHKIL ETISHNING AXBOROT TIZIMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Igamberdiyeva Muxlisa Abduolif qizi

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

Annotatsiya. Maqolada byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobotlarning axborot tizimlarini yaxshilash yo'llari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, budjet, moliya bo'limlari, mablag', UzASBO, DMBAT, jamg'arma.

Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida byudjet tashkilotlari uchun byudjetdan tashqari budjetdan tashqari manbalar hisobiga qo'shimcha daromad olish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Budjet tashkilotlarining faqat davlatga qarab qolishining oldini olish va nufuzini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillik berilmoqda. Bu jarayonda mablag'lar budjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari shaxsiy hisobvaraqlariga to'liq kelib tushishi va ulardan foydalanishda ichki nazoratni sifatli tashkil etish byudjet tashkilotlari xodimlarining manfaatdorligini oshirish va ushbu manbalar hisobiga olingan nomoliyaviy va boshqa aktivlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi hamda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkonlarini kengaytiradi. Nomoliyaviy aktivlar byudjet tashkilotlarining xo'jalik faoliyati jarayonida muhim rol o'ynaganligi sababli, nomoliyaviy aktivlarning hisobi va nazoratini tashkil etishda byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish va hisobini to'g'ri olib borilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Nomoliyaviy aktivlar tarkibida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar moddiy zahiralari hisobga olinadi.

Budjetdan tashqari mablag'lar tushunchasiga iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan turli hil fikrlar va qarashlar bildirib o'tilgan. Jumladan prof. A.Ostonokulov budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini smetalarda nazarda tutilgan maqsadlarda sarflanishini ta'minlash, qo'shimcha moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lgan hollarda amalga oshiriladigan xarajatlarni rejaga nisbatan ko'paytirishni nazarda tutishning zarurligini asoslagan (A.Ostonokulov, 2021).



Iqtisodchi olim Sh.Qurbonov esa, budget tashkilotlari, moliya bo'limlari, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan joriy va jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzishda har bir jamg'arma bo'yicha ma'lumotlarni alohida shakllantirishga hamda axborotlarning ishonchliligini ta'minlashga olib kelgan. Shuningdek, ushbu takliflarning qabul qilinishi budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari hisobi bo'yicha UzASBO va DMBAT dasturiy majmualarini integratsiya qilish imkonini bergan.

Byudjet hisobi-byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir. Mamlakatimiz byudjet tizimida islohotlarni borishi jarayonida byudjet hisobini tashkil etish va yuritilishi hamda nazoratiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda byudjet hisobi va nazoratini tashkil etishga oid bir necha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Moliya organlarida shuningdek g'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida byudjet hisobi yuritilib, davlat byudjeti g'azna ijrosi sharoitida Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari shakllanishi xarajatlarini amalga oshirish, byudjet ijrosi natijalari bo'yicha buxgalteriya axborotlarini shakllantirib beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, bo'limlarida shuningdek g'aznachilik va uning hududiy bo'limlarida byudjet ijrosi jarayoni bo'yicha buxgalteriya hisobi kassa usulida - Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi (DMBAT) asosida yuritiladi. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishdan maqsad foydalanuvchilarni byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar, pul mablag'lari harakati, hisob-kitoblar to'g'risida axborot berishdan iborat. Ushbu axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot shaklida tadim etiladi.

Budget mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budget taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat”- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida. Budget tashkilotlari budget mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib, davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budgetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budget tashkiloti qonunchilikka muvofiq budgetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budgetdan tashqari mablag'lar



bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g'azna ijrosiga o'tilishi, o'rta muddatli budjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o'z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag'larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

oliyaviy qo'yilmalari” analitik schotlarida yuritish uslubiyoti tavsiya etilgan (Xojayev A, 2023). Jahonda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisobotining nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida budjet hisobi va hisobotining kassa hamda hisoblash metodlari takomillashtirilgan (International Public Sector Accounting Standards Board, 2023);

- budjet tizimida budjetdan tashqari jamg'armalar to'g'risidagi axborotlarning ochiqligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun uslubiy tavsiyalar shakllantirilgan (International Monetary Fund, 2022);

- budjet tizimini boshqarishda kuchli ichki nazorat muhitini yaratish, hisobdorlik va axborotlarning ochiqligini ta'minlashda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy qilishning bir va ko'p bosqichli yo'nalishlari ishlab chiqilgan (International Federation of Accountants IFAC);

- davlat budjeti ijrosi va uning buxgalteriya hisobini isloh qilishning Anglo-Amerika, Yevropa va Xitoy modellari ishlab chiqilgan (Organisation for Economic Cooperation and Development, 2023);

- global inqiroz sharoitida budjet tashkilotlari mablag'larining sarflanishida hisob axborotlarining ishonchliligi davlatlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi isbotlangan (Pricewaterhouse Coopers, 2021);

- budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'larni hisobga olishning modifikatsiyalashgan usullari ishlab chiqilgan (London universiteti, 2020);

- budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etish va nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-uslubiy asoslari nazariy jihatdan takomillashtirilgan (Janubiy Rossiya davlat iqtisodiyot va servis universiteti, 2021);



- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari hisobini yuritishda daromad va xarajatlarning muvofiqligi tamoyiliga amal qilishning zarurligi isbotlangan (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti, 2021).

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari yuzasidan smetalar ijrosi har bir mablagʻlarning turlari boʻyicha daromadlar va xarajatlarning reja koʻrsatkichlariga nisbatan bajarilishiga eʼtibor qaratiladi. Bunda, gʻaznachilikda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha smetalari kassa metodi boʻyicha, yaʼni tashkilotlarning shaxsiy gʻazna hisobvaraqlariga pul mablagʻlarining tushumi daromad va hisobaraqlardan pul mablagʻlarining oʻtkazilishi xarajat sifatida hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarining oʻzida esa, smetalarning ijrosi hisob va kassa usuliga asosan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha dastlab daromadlar va ular bilan bogʻliq debitorlik majburiyatlar qayd etiladi. Soʻngra, debitorlik majburiyatlarining shaxsiy gʻazna hisobvaraqlariga kelib tushishi natijasida budjetdan tashqari mablagʻlar boʻyicha pul mablagʻlarining koʻpayishi hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha xarajatlar rejasining bajarilishi daromadlarga oʻxshash tarzda gʻaznachilikda kassa metodi asosida qayd etiladi. Yaʼni, tashkilotlarning shaxsiy gʻazna hisobvaraqlaridan mablagʻlarning sarflanishi xarajat sifatida hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarida esa, hisoblash metodiga asosan budjetdan tashqari mablagʻlar boʻyicha xarajatlar dastlab tan olinib hisobga olinadi. Shaxsiy gʻazna hisobvaraqlardan mablagʻlarning sarflanishi debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar natijasi sifatida qayd etiladi va kassa xarajat sifatida eʼtirof etiladi. Bunda, gʻaznachilikda ham, budjet tashkilotlarida ham smetalarning ijrosi rejaga muvofiq amalga oshirilishi talab etiladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari harakati toʻgʻrisidagi moliyaviy hisobotlarning shakllari, ularni tuzish va taqdim etish tartibi hamda muddatlari ham moliya organi tomonidan belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Budjet tashkilotini davlat budjetidan moliyalashtirish bilan bogʻliq xarajatlar xarajatlar smetalari ijrosi kassa metodi asosida amalga oshiriladi. Budjetdan ajratilayotgan mablagʻlar tuzilgan xarajatlar smetasi doirasida bosqichma-bosqich budjet tashkilotining topshirigʻiga asosan gʻaznachilikda ochilgan shaxsiy gʻazna hisobvaraqlari orqali moliyalashtirib boriladi. Kassa xarajatlari, deb eʼtirof etilishiga sabab, mamlakatimizda davlat budjeti ijrosi kassa usuliga asoslanganligidadir. Demak, budjet tashkilotlarini davlat budjetidan moliyalashtirish yoki gʻaznachilik tomonidan tashkilot majburiyatlarining toʻlanishi budjet



tashkilotlarida kassa xarajatlari sifatida hisobga olinadi. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha daromadlar va xarajatlar budget mablagʻlaridan farqli oʻlaroq, daromadlar va xarajatlarning rejalari ijrosi bilan uzviy aloqadorlikda yoki shaxsiy gʻazna hisobvaraqlardagi oʻzgarishlar bilan emas, balki, daromad va xarajatlarning vujudga kelishi va ularni tan olish orqali hisobi yuritilishi zarur. Bir soʻz bilan aytganda, budgetdan tashqari mablagʻlar boʻyicha daromad va xarajatlar budget tashkilotlarida hisoblash usuliga asosan hisobga olinishi kerak.

Byudjet tashkilotlarining barcha byudjetdan tashqari mablagʻlari harakatiga oid hisobotlarda daromad yoki tushumlarga oid koʻrsatkichlar keltirilgan. Hisobotlarning nomlanishi va koʻrstkichlarning shakllantirilishida ushbu daromad yoki tushumlar faqatgina, tashkilotning hisob raqamiga tushgan pul mablagʻlari tushumi nuqtai nazaridan hosil qilinmoqda. Ushbu holat tashkilotning byudjetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha hisobga olingan yoki hisoblangan daromadlari toʻgʻrisidagi axborotlarni olish imkonini bermaydi. Hisobot davridagi hisobvaraqa kelib tushgan daromadlar va amalga oshirilgan xarajatlarni taqqoslash tashkilotning haqiqatdagi moliyaviy holatini aniqlashga imkon bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. OʻRQ-360-son. 26.12.2013. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2013 y. №52-I-son.//www.lex.uz
2. (Ostonokulov, 2021). Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablagʻlari hisobi va hisoboti uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2021. – 64 b.;
3. Bakanov M.I., Melnik M. Byudjet hisobi obyektlarining iqtisodiy mazmuni. Darslik. Toshkent: “Oʻqituvchi”. 2006. -720 b.
4. (Bakaybayeva, 2020). Oʻzbekiston Respublikasida budget hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yoʻllari. i. f. d. dis. avt. –T.: 2020.
5. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”. Tarjima. A. Rizaqulov, B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. T.: - 2004

